

**MATEMATIKA DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARDA TADQIQIY BILIM VA
KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

Qodirova Muhabbatxon Sodiqjonovna

*Andijon viloyati Jalaquduq tumani 8-umumiy o'rta ta'lim maktabi matematika fani
o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada matematika ta'llimi jarayonida o'quvchilarda tadqiqiy ko'nikmalarining shakllantirish va rivojlanirishning ahamiyati ko'satilgan. Masalalar yechish orqali o'quvchilarda tadqiqiy ko'nikmalarini shakllantirish usullari keltirilgan.*

Kalit so'zlar. *Fan, ta'llim, tadqiqiy, bilim, ko'nikma, qobiliyat, metod, masala.*

Jamiyat rivojlanishining ichki va tashqi tuzilishi, o'z navbatida, yuqori ma'lumotli har tomonlama o'sib kelayotgan yoshlarni aqliy va jismoniy mehnatni birga qo'shib olib bora oladigan, xalq ho`jaligining turli sohalarida unumli mehnat qila oladigan kishilar darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazish umumita'lim maktablarining o'qituvchilari hal qilishi lozim bo`lgan dolzarb masalalaridan biri ekanligini taqozo qilmoqda. O'quvchilarning savodli bo`lib chiqishi - bu bevosita matematika fanining o'qitilishini takomillashtirish, o'quvchilarda tadqiqiy ko'nikma va malakan shakllantirishdan iborat.

Buning uchun o'qitish jarayonini har tomonlama takomillashtirish, keyingi yillarda psixologiya va pedagogika fanlarining samarali metodlaridan biri, metodikada keng ko`lamda foydalanish mumkin bo`lgan muammoli metodni unumli, faol o'qitish jarayoniga tatbiq qilish natijasida o'quvchilarning tadqiqiy ko'nikmalarini shakllantirishga erishish bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyatga egadir.

Bu masalalarning har biri o'quvchilarning matematik bilim saviyalari bilan bog`liq bo`lib, u o'z navbatida, tadqiqiy ko'nikmalarini shakllantirishda yetakchi vazifalaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, matematik bilim o'zining tuzilishi jihatidan har xil bo`lishi mumkin. Ular asosan boshlang`ich, klassik, shakl almashiruvchi, rivojlaniruvchi, baholovchi bo`lishi mumkin. Bu bilimlarning har biri uchun o'zining mazmuni va funksiyasi mavjud bo`lib, ular o'quvchilarning tadqiqiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham tadqiqiy ko'nikmalarini shakllantirishda o'quvchilarning qaysi bilimdan qanday foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega.

Matematika fanining o'qitilishi o'quvchilar bilimlari sifatini oshirishni ta'minlabgina qolmasdan, balki o'quvchilarni amaliyotga tayyorlashga ham yordam qiladi, o'quvchilarga ko`p qirrali ilmiy ma'lumotlar beradi, yaxlit dunyoqarashni hosil qilishga yordam beradi hamda ularning tadqiqiy ko'nikmalarini shakllantiradi. Har bir dars tuzilishini aniqlashda, uning maqsadi va mazmuni muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarning tadqiqiy ko'nikmalari qanchalik aniq va chuqur bo`lsa, ularning bilish faoliyati mukammal, mehnati unumli bo`ladi. O'qitishda tadqiqiy ko'nikma vazifasi shundan iboratki, yangi harakat usullarini va o'zlashtirilishi lozim bo`lgan yangi bilimlarni "kashf etishga" xizmat qiladi. O'qitish jarayonida tadqiqiy faoliyat - bu vazifani fikrlash zaruratini, yahni ilgari ma'lum bo`lmagan bilimlarni yoki harakat usullarini "kashf etish" yoki o'zlashtirishni talab etadigan vazifani bajarish vaqtida o'quvchida paydo bo`ladigan psixik holatni keltirib chiqaradigan muayyan vaziyat.

Matematikani o'qitish jarayonida matematik bilimlar tizimini yuzaga keltirish va uning tatbiqini amalga oshirish o'zining tuzilishiga ko`ra juda murakkab jarayon bo`lib, u o'quvchilardan juda xushyorlik, chidamlilik bilan matematikani o'rganishni, qonun va qoidalarni chuqur o'rganib, asosiy matematik tushunchalarning xossalari va qoidalarni puxta o'zlashtirishni talab qiladi.

Tahlilning asosiy tatbiqi ilmiy tekshirish usulidagidek tadqiqiy faoliyatda masala yechilishini oson kechadigan sodda masalalarga keltirish hisoblanadi. Tekshiruvchiga har doim dastlabki masalani yechishda shunday qism masalalar to`plamiga ajratishga t?g`ri keladi. Bu qism masalalarni yechish bir qancha topilgan qism masalalar to`plamini o`z ichiga olgan dastlabki masalani yechishga olib keladi. Qoidaga asosan bularni yechish dastlabki masalani yechishga ko`ra yengilroq kechadi. Har qanday tekshirish darrov dastlabki muammoni bo`laklarga bo`lib o`rganishga, xususiy masalalarni yechishga, maqsadga yakinlashishga mo`ljallangan. Javobning o`zgarishiga qarab, tekshirish rejası t?g`rilaadi va o`zgaradi, ketma-ket shartga borish oldindan tekshirish rejasini tuzishga imkon beradi.

Dastlabki masalaning qism masalalarga bo`linishi uning mazmunini ham qismlarga ajratish va tabaqalash natijasida masalaning turli xususiyatlarini yuzaga chiqaradi. Shu jihatdan qismlarga bo`lish masala yechish jarayonini aniqlash omili bo`lib, tadqiqiy faoliyat hisoblanadi.

Biz masalalarni bo`lib yechish jarayonini tadqiqiy jarayon deb qrar ekanmiz, o`z oldimizga tadqiqiy ko`nikmalarni hosil qilish va rivojlantirishni asosiy maqsad qilib qo`yamiz. O`z-o`zidan ular foydali va samarali bo`lib, masalani bo`lib yechish metodini mustahkam egallab olishda qo`l keladi. Bu esa, o`z navbatida, algebraik va geometrik masalalar yechishdagagi bilimlarni oshiradi. Masalani qismlarga bo`lib yechishda shu qismlarning sifatiga ahamiyat berilishi lozim. Bundan shunday xulosa chiqadiki, tadqiqiy ko`nikmalarni shakllantirish uchun masalani qismlarga bo`lishni quydagicha ajratish mumkin bo`ladi:

1. Masala elementlarini ajrata bilish.
2. Masalaning berilgan elementiga mos tushuvchi figuralar va ular orasidagi o`zar aloqalarini ko`rsata olish.
3. Masala yechimiga olib keladigan aloqalarni ?rnata bilish.
4. Masalani qism masalalarga ajratish hamda ularning zidsizligi va to`laligini baholash.
5. Masalaning yechilish grafini yasash.

Bu jarayonlarning har biri o`ziga xos, muhim ahamiyatga ega bo`lib, u har bir o`quvchidan ma'lum matematik sadoqatni talab qiladi. Matematika o`qitishda tadqiqiy bilimga ega bo`lish bu hayotiy talab va ehtiyoj bo`lib, u kishilik jamiyatining rivojlanish asosini tashkil qilish bilan birga, o`quvchilarда tadqiqiy ko`nikmalar shakllanishi jamiyatning to`laqonli a'zosi sifatida ham muhimdir. Shunday qilib, o`quvchilarning matematik bilimlarini, qobiliyatlarini rivojlantirish zarurati davr talabi hisoblanadi. Bunday qobiliyatlarни taraqqiy ettirish o`z-o`zidan tadqiqiy ko`nikmalarni shakllantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga bo`lg`usi izlanuvchi, tadqiqotchi-olimlarni, mutaxassislarni, matematikaga qiziquvchi yoshlar sonining o`sishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari - T.: 2006.
2. Umurbekov A.U., SHoabdakov SH.SH. Matematikani takrorlash -Toshkent: "O'qituvchi", 1989.
3. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2008.